

INVESTITSIYA VA INVESTITSION MUHITNING JOZIBADORLIGINI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

QMII “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti,

E-mail: salimaegamberdiyeva147@gmail.com;

+99899 517 30 80.

L.T.Raximova

QDTU magistranti

J.I.Raxmatov

IPU NTM magistranti

jonibekraxmatov715@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-6857-2108>

Annotasiya. *Maqolada mamlakatimiz sanoatida investisiyaning o‘rni va faoliyatini amalga oshirishning hududiy xususiyatlariga oid masalalar yoritilgan. Respublikada amalga oshiriladigan investisiya faoliyatini samarali olib borishda investitsion muhitni va investitsion jozibadorlikni yaxshilash va investisiyalarni jalb etish mexanizmlarini shakllantirish, istiqbolli investitsion loyiha takliflarini taqdim etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *investisiyaviy faollik, investitsiya, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, Beri – (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma’lumot) indeksi, indikator, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya, retsipient, donor, biznes, segment, investitsiya salohiyati.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль инвестиций в промышленность нашей страны и вопросы, связанные с территориальными особенностями их осуществления. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по улучшению инвестиционного климата и повышению инвестиционной привлекательности, формированию механизмов привлечения инвестиций, а также представлены перспективные инвестиционные проекты для эффективной реализации инвестиционной деятельности в республике.*

Ключевые слова: *инвестиционная активность, инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, индекс BEI (Business Environment Risk Information), индикатор, прямые иностранные инвестиции, получатель, донор, бизнес, сегмент, инвестиционный потенциал.*

Abstract: *This article examines the role of investment in our country's industry and issues related to the territorial specifics of its implementation. Scientifically based proposals and recommendations for improving the investment climate and increasing investment attractiveness, developing mechanisms for attracting investment, and presenting promising investment projects for the effective implementation of investment activities in the republic have been developed.*

Keywords: *investment activity, investments, investment climate, investment attractiveness, BEI (Business Environment Risk Information) index, indicator, foreign direct investment, recipient, donor, business, segment, investment potential.*

Kirish

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har bir davlatning strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun investitsiyalar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va sektorlar bo'yicha ishlab chiqilgan investitsiya dasturlarining ahamiyati katta. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda yangi loyihalar yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsion jozibadorlikni oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda faol investitsiya siyosatini yuritish maqsadida juda ko'plab islohatlar o'tkazilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining tobora globallasuvi va transformatsiyasining hozirgi sharoitida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanib borishining yetakchi omili sifatida faol investitsion faoliyatni amalga oshirish davr talabiga aylanib bormoqda.

Mamlakatda investitsiya resurslarining yetarli emasligi, noqulay investitsiya sharoitlari, davlatning faol investitsion siyosat borasidagi sust mexanizmi kabi muammolar xo'jalik yuritish subyektlarining investitsion faoliyatlarini yuritishlarida bevosita salbi ta'sirini o'tkazmoqda. Qanday bo'lishidan qat'i nazar investitsion loyihani amalga oshirish bosqichida, ma'lumki moliyaviy resurslarning yetarli bo'lishi talab etiladi.

Investitsiyani moliyalashtirish manbalarining tuzilmasiga asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik (asosan soliq qonunchiligi), investitsiyani jalb qilish infratuzilmasi ahvoliga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investitsion faoliyatga oid jarayonlarning xuquqi asoslari shakllangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi va bu munosabatlarning huquqiy bazasi hisoblanadi va qonunda ta'riflanganidek, "Investitsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning

ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui"dir ³

Shuningdek, mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yurutgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda iqtisodiyotning yuragi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi"

Biz faqat investisiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart.

Xorijiy investisiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim", deb ta'kidlab, xorijiy investisiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

Yurtimizda ham xalqaro talablarga javob beradigan investitsion muhit yaratilgan. Xususan, 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son qonunning qabul qilinishi, O'zbekistonning investitsiya salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qonunda Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator imtiyoz hamda preferensiyalar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Investitsion muhitni va investitsion jozibadorlikni yaxshilash, investisiyalarni jalb etish mexanizmlarini tushunchalari borasida, ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan taniqli iqtisodchilar M.Glagoleva va S.Beloguralarning fikricha, "Mamlakat yoki mintaqaning investitsion jozibadorligi hamda moliyaviy qo'yilmalar jozibadorligining ma'lum darajasini belgilovchi omillar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda davlatni huquqiy sharoitlari tavsifini birgalikda umumlashgan holatidir."⁴ Mazkur fikrda, investitsion jarayonlarni amalga oshirish, investitsion jozibadorligining umumiy tushunchasi izohlangan bo'lib, unda investitsion muhitini belgilaydigan turli omillar mavjudligi ifodalangan. Taniqli iqtisodchi N.Murashkoning ta'kidlashicha investitsion muhitni investitsion jozibadorlik va investitsion faolliksiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu tushunchalar o'zaro bog'liqlikda ishlaydi ⁵.

A.Rolikning yondashuvida esa investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya ob'yekti

³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 3-moddasi. <https://stat.uz/uz/>

⁴ Glagolev P., Belogur S. (1997) Investitsionnye prostory Rossii // Rossiyskiy investitsionnyy vestnik. № 3. s 15.

⁵ Murashko N.N. Osenki investitsionnoy privlekatelnosti regionov Respubliki Belarus i vozmozhnosti yee prognozirovaniya. MIDO BNTU 2016. Str.116. // Murashko N.N. (2012)

boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi.⁶

Iqtisodchi A.Asualning fikricha, investitsion jozibadorlik – bu investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi.⁷

Elvira Sojli, Wing Wah Thamlarning qarash- larida investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishi- ni faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Investitsiya jozibadorligining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.⁸

Takhumova Oksananing ilmiy tadqiqot ishlarida investitsiya muhitini asosiy uch segmentga ajratadi. Korxonalarning investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlaridir.⁹

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhiti – bozor konyunkturasi ta'siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq jarayon hisoblanadi.¹⁰

Investisiyalar, ularni faol jalb qilish, qulay investitsiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish investisiyalarni hududlardagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati haqida yana ko'plab milliy va xorijiy olimlarning ishlanmalari mavjud:

Masalan, xorijlik iqtisodchi olimlardan K.Eklundning fikricha, investisiyalar - bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish sharoitiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan

⁶ Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; <https://www.sciencedirect.com>.

⁷ Asaul A.N. Formirovaniye investitsionnogo klimata (opyt Peterburgskogo regiona). // «Ekonomika Ukrainy»: Kiyev, № 4. (2013).

⁸ Elvira Sojli, Wing Wah Tham. "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.

⁹ Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Masliхова Elena A, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations. // Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12;

¹⁰ Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends. // Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.

narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari bo'lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir.¹¹

E.D.Dolan va D.S. Lindseylarning fikrlaricha investisiyaning mazmuni "shakllanaytgan iqtisodiy tizimda kapital hajmining o'sishi, odamlar amal qiladigan ishlab chiqarish resurslari taklifini yuksalishida" dir.¹²

U.Sharpning aytishicha, investitsiya - istiqbolda yanada ko'proq miqdordagi mablag' olish uchun ma'lum miqdordagi pul bilan bugun ajralishdir.¹³

Shuningdek, investitsiya turlari va ularni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarning tasnifi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari, investitsiya faoliyati va investitsiya yo'nalishlarda respublikamizning yetakchi olimlari D.G'ozibekov, B.A.Abdukarimov, A.N. Jabriyev, M.K. Pardayev, D. Tojiboyeva, va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar va o'zlarining fikrlarini bergan.

D.G'ozibekov fikriga ko'ra, investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag' olish, ularni asosli holda safarbar qilish, risklar darajasini hisobga olgan holda capital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi.

B.A.Abdukarimov, A.N. Jabriyev, M.K. Pardayevlarning fikrlaricha "investitsiya - bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' qo'yish. U pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkka, intellektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi.

D. Tojiboyevaning fikricha investitsiya deganda kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanildi. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning adabiyot va maqolalari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga kuzatganimizda, avvalo, investitsiya muhitining sog'lomligi, uning jozibadorligi natijasida, investitsiyalar oqimining shiddat bilan kirib kelishi orqali mamlakat iqtisodiyoti bilan bog'liq tendensiyalarning progressiv natijalarga erishayotganini guvohi bo'lamiz. Bugungi kunda jahonda kechayotgan globalashuv va texnologik qurollanish bosqichida, iqtisodiy rivojlanish kombinatsiyasi talqinida investitsiya oqimining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar retsipient pozitsiyasi

¹¹ Klas Eklund. Effektivnaya ekonomika: Shvedskaya model. M. "Ekonomika" 1991, 96b.

¹² Dolan E.Dj., Lindsey D.Ye. Mikroekonomika. -Spb.,1994.-448 s.

¹³ Komilova Mukammal Shavkatovna Abdixolliqov Jamshid Abdixalilovich. "Use of marketing strategy as a factor of increasing the competitiveness of construction enterprises." International journal of advanced research in education, technology and management 2.3 (2023).

orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida o'rta va yirik biznesni tashkil etish va uni samarali yuritish uchun mamlakatdagi yaratilgan investitsiya salohiyati, tashkil etilgan zamonaviy infratuzilma, investitsion muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, xususiy mulk daxlsizligi, biznes subyekti sifatida o'z kapitalini yo'naltirish uchun mamlakatda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi ¹⁴ " – deb ta'kidlaganlar

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlar va tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq hisoblanadi

Mamlakatdagi innovatsiya va investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy hamda me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart- sharoitlarning qulayligi mamlakat investitsion jozibadorlik darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatgichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini aniqlashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, capital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'adi. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitining makroiqtisodiy darajada quyidagi rasm ko'rinishida tasvirlash mumkin.

1-Jadval.

Mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar

Investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar		
Siyosiy omillar	Iqtisodiy omillar	Ijtimoiy omillar
Xorijiy investorlarga	Iqtisodiyotning umumiy	Xoriji kaitalga va xususi

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasi (2020-yil 29- dekabr).

nisbatan davlat siyosati	holati(rivojlanish yoki inqiroz)	mulkka jamiyat a'zolarining munosabati
Xalqaro shartnomalarga amal qilish	Inflyaiya darajasi, valyuta kursi barqarorligi	Jamiyatning mafkuravi bilim darajasi
Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi	Turlicha soliq, boj to'lovlaridagi imtiyozlar	Ishchi sinfining tashkilotchiligi
Xalqaro shartnomalarda ishtirok etish tizimi	Xom ashyo bilan ta'minlanganlik	

O'zbekistonda investitsion jozibadorlikni belgilovchi kengaytirilgan uchta eng yirik segmentlar mavjud bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar tarkibidagi ta'sir etish kuchiga ega turli-xil omillar sanaladi. Bu omillarning barqarorligi esa o'z-o'zidan investitsiyalarni donor pozitsiyasida kirib kelishi uchun munosabatlar negizi vazifasini o'tabgina qolmay, investor o'z kapitalini yo'naltirish borasida mamlakatning hududi hamda soha-tarmoqlariga bo'lgan potentsiali ortib boradi. Shu qatorda aksincha, investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z riskini shunchalik yuqori belgilaydi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibasini baholashda ko'pchilik xorijiy investorlar ham "BERI" (business environment risk index) indeksidan foydalanadilar. Bu indeks asosiy 15 ko'rsatgichda aniqlanadi, 0 dan 4 ballgacha. Indeksning optimal jihatlari shundaki, u bilan hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy strukturani qay tarzda ishlayotganini bilish mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda investitsiya masalasi so'nggi 5 yilda o'z aktualligini yo'qotmaganini hisobga olgan holda, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni tahlil qilish natijasida mamlakatga investitsiya kirib kelishida yildan-yilga o'sish sur'atlar qayd etilganini ko'rishimiz mumkin.

Bunday investitsiya holatida o'sish sur'atlarini yanada oshib borishi investorlar uchun qulay muhit yaratilganligi, investitsiya dinamikasi va tarkibiga ta'sir ko'rsatadigan jami iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, raqobatbardoshligi bevosita tadbirkorlik faoliyatining erkinlik darajasiga bog'liqdir. Jahon mamlakatlari va mintaqalari o'rtasidagi kapital oqimining intensivligi deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar hajmlarining oshishiga olib kelishi tabiiydir. Ushbu sohada maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish siyosatini takomillashtirish, sanoatning ustuvor tarmoqlarida va agrar sektorda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va zaruriy resurslarni xarid qilishi uchun davlat tomonidan subsidiyalar tizimini ishga tushirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlillarga ko'ra, 2024 yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 493,7 trln so'mni tashkil etgan. Shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 67,6 % ga yetgan ¹⁵.

O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor davlatlar:

№	Davlatlar	Davlatlarning o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi
1	— Xitoy	– 27,9%;
2	— Rossiya	– 13,2%;
3	— Turkiya	– 6,8%;
4	— Germaniya	– 5,2%;
5	— Saudiya Arabistoni	– 5%;
6	— Niderlandiya –	-4%.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP)ning Shimoliy va Markaziy Osiyo mamlakatlariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi haqidagi hisobotida 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga jalb qilingan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 49 foizga kamaygani va 4 milliard dollarni tashkil qilgani e'tirof etildi.¹⁶

Qayd qilinishicha, 2024-yilda Shimoliy va Markaziy Osiyoda investitsiya jalb etish bo'yicha yetakchiga aylangan mamlakat Qozog'iston bo'lib, yangi loyihalarga 15,7 milliard dollar jalb qilingan. Bu esa investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 88 foizga oshganini anglatadi. Umuman olganda, mintaqaga jalb qilingan barcha investitsiyalar hajmining 63 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi. Ro'yxatning keyingi o'rinlarida quyidagi davlatlar joy olgan: - O'zbekiston — 4 milliard dollar (-49%); - Qirg'iziston – 2,1 mlrd dollar (+31%); - Ozarbayjon — 1,2 milliard dollar (+1%); - Turkmaniston — 339 million dollar; - Gruziya - 126 million dollar; - Armaniston – 67 million dollar.

Aniqlanishicha, xalqaro kompaniyalar mintaqada, ayniqsa, raqamlashtirish, texnologik innovatsiyalar va yashil energiya sohasidagi loyihalarga faol qiziqish bildirmoqda. Investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq mamlakatlar investitsiya kiritayotgan bo'lib, ular orasida Xitoy, Rossiya, Germaniya, Turkiya va Janubiy Koreya asosiy investor mamlakatlar hisoblanadi.

Jahon banki guruhi tomonidan biznes yuritish yengilligi reytingi, tanlama reyting, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, qurilishga ruhsatnomalar olish, elektr ta'minot

¹⁵ <https://zamin.uz/iqtisodiyot/144858-ozbekistonga-qajsi-davlatlar-eng-kop-investiciyakiritmoqda.html>

¹⁶ <https://kun.uz/kr/32189151>

tizimlariga ulanish, mulkni ro'yxatga olish, kreditlar olish, minoritar investorlarni himoya qilish, soliqqa tortish, xalqaro savdo, kontraktlar ijrosini ta'minlash va to'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish kabi qator pozitsiyalar bo'yicha e'lon qilinib kelinayotgan Doing Business indeksida Singapur so'nggi o'n yildan buyon birinchi uchtalikni bo'shatmay kelmoqda.

Singapurdagi investitsion muhitni rag'batlantirishga doir davlat siyosati donor mamlakatlarning doimiy qiziqishlari markazida turishini nazarda tutganda mazkur mamlakat bilan investitsion hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu mamlakat janubi-sharqiy Osiyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi asosiy davlatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, investitsion siyosatning samaradorligiga erishishda yana bir muhim omil bu - investorlar uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan, hududlarning imkoniyatlari va salohiyatlarini aks ettiradigan asosiy indikatorlar bazasini (pasportini) ishlab chiqib ularni ochiq baza, ya'ni internet-resurs sifatida ommaviylashtirilishi ham muammolarning amaliy yechimida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida investitsiya salohiyatini oshirish uchun viloyat hududlarining har biriga investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya kiritish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli loyiha takliflarini taqdim etish, sifatli loyihalarni ishlab chiqish va ijrosini tizimli ta'minlash, xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish, investorlar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, investitsiyalarni jalb qilishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Yildan-yilga yurtimizdagi investitsion muhitning yaxshilanayotganligi hamda aholining daromadlari oshgayotganligini yuqoridagi raqamlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya jarayonlarini tartibga solish yo'nalishi va taqsimlanishini to'g'ri aniqlashning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon yaratuvchi

shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat'iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim jarayondir.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelishi mumkin.

1.O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha esa uning jahon arenasidagi imidjini mustahkamlash;

2.Investitsiyalarni jalb qilishda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish va axborotlar ochiqligini ta'minlash;

3. Investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, mahalliy kompaniyalar va xorijiy investorlar o'rtasida ishlab chiqarish va sotish munosabatlarini rivojlantirishni hamda savdo logistikasini yaxshilash;

4. Ishbilarmonlik muhiti va qulay investitsion muhitni shakllantirishda davlat organlari rolini oshirish kabi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab amaliyotga tadbiriq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi. Shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdaqi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"qi qonuni, 3-moddasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasi (2020-yil 29- dekabr).

3. Глаголев П., Белогур С. (1997) Инвестиционные просторы России // Российский инвестиционный вестник. № 3. с 15.

4. Мурашко Н.Н. Оценки инвестиционной привлекательности регионов Республики Беларусь и возможности ее прогнозирования. МИДО БНТУ 2016. Стр.116. // Мурашко Н.Н. (2012)

5. Yurii A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; <https://www.sciencedirect.com>.

6. Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона). // «Экономика Украины»: Киев, № 4. (2013).

7. Elvira Sojli, Wing Wah Tham. "The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States" In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.

8. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Masliхова Elena A, Alexey V. Yumashev, Maria V. Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations. // Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12;

9. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends.

// Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9.

10. Klas Eklund. Effektivnaya ekonomika: Shvedskaya model. M. "Ekonomika" 1991, 96b.

11. Dolan E. Dj., Lindsey D. Ye. Mikroekonomika. -Spb., 1994.-448 s.

12. Komilova Mukammal Shavkatovna Abdixolliqov Jamshid Abdixalilovich. "Use of marketing strategy as a factor of increasing the competitiveness of construction enterprises." International journal of advanced research in education, technology and management 2.3 (2023).

13. <https://zamin.uz/iqtisodiyot/144858-ozbekistonga-qajsi-davlatlar-eng-kop-investiciyakiritmoqda.html>

14. <https://kun.uz/kr/32189151>

15. <https://stat.uz/uz/>